



<https://doi.org/10.70728/a.series.ijt.v08.i04.025>

O‘ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALAR VA NORASMIY HARAKATLARNING VUJUDGA KELISH TARIXI (1980–1990-YILLAR)

Iminov Begzod Begijonovich

Farg‘ona davlat universiteti,

O‘zbekiston tarix kafedrasi dotsenti,

f.f.b.f.d, (PhD), iminovbegzod@gmail.com

+998911306159

ORCID ID 0000-0002-6049-2663

Annotatsiya. Ushbu maqola O‘zbekistonda siyosiy partiyalar va norasmiy ijtimoiy-siyosiy harakatlarning vujudga kelish tarixini (1980–1990-yillar) tahlil qilish va tushuntirishdan iborat bo‘lib, metodologiya tarixiy-tahliliy yondashuv, komparativ siyosiy tahlil, hujjat va normativ-huquqiy aktlar hamda adabiyotlar tahliliga tayanadi. Markaziy Osiyo davlatlarida siyosiy partiyalarning vujudga kelishida o‘xshash jarayonlar (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston) mavjud bo‘lsa-da, ularning tashkiliy ko‘lami va siyosiy radikaligi respublikalar bo‘yicha farqlanganligi ko‘rsatib o‘tiladi. Maqolada muallifning shaxsiy ilmiy yondashuvi, mavjud manbalarning tahlili hamda metodologik asoslari yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar (Keywords): qayta qurish, oshkoralik, norasmiy harakatlar, siyosiy partiyalar, siyosiy pluralizm, mustaqillik, ekologiya, diniy erkinlik, siyosiy chiqishlar, milliy birlik, “Birlik”, “Erk”, mustaqillik deklaratsiyasi, davlat tili siyosati.

Аннотация. Настоящая статья посвящена анализу и объяснению истории формирования политических партий и неформальных общественно-политических движений в Узбекистане в 1980–1990-е годы. Методология опирается на историко-аналитический подход, сравнительный политический анализ, а также на изучение документов, нормативно-правовых актов и научной литературы. Несмотря на то, что в странах Центральной Азии (Казахстан, Киргизия, Таджикистан, Туркменистан) наблюдались сходные процессы формирования политических партий, отмечается различие в их организационном масштабе и степени политической радикальности по республикам. В статье освещаются личный научный подход автора, анализ имеющихся источников и методологические основы исследования.

Ключевые слова (Keywords): перестройка, гласность, неформальные движения, политические партии, политический плюрализм, независимость, экология, религиозная свобода, политические выступления, национальное единство, «Бирлик», «Эрк», декларация о независимости, политика государственного языка.

Abstract. This article is devoted to the analysis and interpretation of the emergence of political parties and informal socio-political movements in Uzbekistan during the 1980s–

1990s. The study is based on a historical-analytical approach, comparative political analysis, and the examination of documents, normative-legal acts, and relevant scholarly literature. Although similar processes in the formation of political parties can be observed across Central Asian states (Kazakhstan, Kyrgyzstan, Tajikistan, and Turkmenistan), the study demonstrates that their organizational scope and degree of political radicalism varied significantly among the republics. The article further elaborates on the author’s individual scholarly perspective, the analysis of existing sources, and the methodological foundations underpinning the research.

Keywords. Reconstruction, transparency, informal movements, political parties, political pluralism, independence, ecology, religious freedom, political activism, national unity, Birlik, Erk, Declaration of Independence, state language policy.

Kirish. Ushbu tadqiqot 1980–1990-yillarda O‘zbekistonda siyosiy partiyalar va norasmiy harakatlar paydo bo‘lishini sovet tizimi inqirozi, “qayta qurish” va “oshkoralik” siyosati hamda Markaziy Osiyoda yuzaga kelgan milliy-ijtimoiy tizim bilan bog‘liq jarayon sifatida tahlil qilinadi. Siyosiy “partiyalashuv” bu davrda birdaniga emas, balki bosqichma-bosqich: avval jamoatchilik harakati va tashabbus guruhlar (til, ekologiya, adolat va legitimlik masalalari) ko‘rinishida, 1990-yilda esa huquqiy asoslarning shakllanishi bilan belgilanadi [1. 91-93].

O‘zbekiston holatida siyosiy pluralizmning shakllanishi umumittifoq darajasidagi konstitutsiyaviy-huquqiy o‘zgarishlar bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, ya’ni 1990-yil 14-martdagi SSSR Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar va 1990-yil 9-oktabrdagi “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi SSSR qonuni siyosiy partiyalarni huquqiy jihatdan qonuniylashtirib berdi. [2. 28]

Norasmiy harakatlar (“Birlik”) va 1990-yilda shakllangan muxolif siyosiy partiya (“Erk”) dastlab til siyosati, milliy uyg‘onish, ekologik inqiroz (Orol havzasi), korrupsiya va boshqaruv kabi masalalarni siyosiy kun tartibiga aylantirdi, bu jarayonlar rasmiy institutlar (prezidentlik lavozimini joriy etish va mustaqillik deklaratsiyasi) bilan bir vaqtda kechib, yangi siyosiy maydonni belgilab berdi [3. 56-63].

Sovet siyosiy tizimi mohiyatan bir partiyali boshqaruv modeliga tayanar edi. Sovet Ittifoqida “yetakchi va yo‘naltiruvchi asosiy kuch” sifatidagi KPSSning ustuvor roli 1977-yil Konstitutsiyaning 6-moddasi orqali mustahkamlangan, saylovlar esa real muqobillikni bermas edi. 1990-yil mart oyida 6-moddaning o‘zgartirilishi va qo‘shimchalar kiritilishi ko‘ppartiyaviy siyosatning huquqiy asosiga yo‘l ochdi, bu jarayon “qayta qurish” va “oshkoralik” doirasida sodir bo‘ldi.

SSSRning oxirgi rahbari M.Gorbachyov boshlab bergan “perestroyika” (“qayta qurish”) va “glasnost” (“oshkoralik”) siyosatlari 1980-yillar oxirida davlat va jamiyat munosabatlarida muhim burilish yasadi, oshkoralik siyosiy va ijtimoiy masalalarni ochiq muhokama qilishni kengaytirib, siyosiy tizimning demokratlashuviga turtki berdi, bu jarayon oxir-oqibat partiya yakkahokimligining kamayishi va ko‘p nomzodli saylov amaliyotiga o‘tish bilan hamohang bo‘ldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLARI. Ushbu tadqiqot mazkur adabiyotlar sharhini kengaytirib, arxiv hujjatlari, davr matbuoti, shuningdek, xorijiy maqolalar asosida o‘rganilgan.

Arxiv hujjatlari: Sobiq Sovet Ittifoqi arxiv ma’lumotnomasi, O‘zbekiston Milliy arixivi, KGB (Davlat xavfsizlik qo‘mitasi) hisobotlari, partiya hujjatlari asosida o‘rganildi. Mazkur hujjatlar O‘zbekistonda siyosiy partiyalar va norasmiy harakatlarning vujudga kelish jarayonini belgilab bergan.

Ilmiy adabiyotlar: o‘sha davr voqealari haqida yozilgan tarixiy monografiyalar, ijtimoiy fanlarga oid ilmiy maqolalar.

Davr matbuoti: “Pravda”, “Izvestiya”, “Sovet O‘zbekistoni”, “Qizil O‘zbekiston” singari gazetalar va jurnallarda nashr etilgan rasmiy xabarlar, tanqidiy chiqishlar [4. 242].

Og‘zaki tarix (Oral History): voqea guvohlari, sobiq amaldorlar, mustaqil tadqiqotchilar bilan suhbatlar. Ular rasmiy hujjatlarda aks etmagan subyektiv ma’lumotlarni olish imkonini yaratadi.

Mavzuni o‘rganishda quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tarixiy yondashuv: Siyosiy partiyalar va norasmiy harakatlarning vujudga kelish jarayon xronologiyasini tiklash, voqealar ketma-ketligini arxiv hujjatlari orqali aniqlash.

Tahliliy-solishtirma: Markaziy Osiyoning boshqa respublikalarida yuz bergan (yoki berishi mumkin bo‘lgan) shunga o‘xshash harakatlarni ilmiy tahlil qilishdan iborat.

Cheklov va muammolar: ba’zi siyosiy ahamiyatga ega arxiv hujjatlar hamon to‘liq e’lon qilinmagan yoki tadqiqotchilar uchun yopiq; guvohlarning yoshi, xotira buzilishi yoki siyosiy manfaatlar tufayli voqealarga biryoqlama baho berish ehtimoli bor; o‘sha vaqtda markaz tomonidan kiritilgan senzura, tazyiqlar sababli rasmiy hujjatlar ham, matbuot manbalari ham to‘liq neytral bo‘lmashligi mumkin.

NATIJALAR (RESULTS). O‘zbekistonda siyosiy pluralizmning paydo bo‘lishi umumittifoq islohotlari bilan birga, mahalliy ijtimoiy-siyosiy ziddiyatlar va “muammolar to‘plami” bilan ham belgilanadi. Bu omillardan biri — 1980-yillarda paxta boshqaruvi atrofidagi korrupsiya, reja ko‘rsatkichlari va markaz-respublika munosabatlaridagi keskinlikni kuchaytirgan “paxta ishi” tergovlari bo‘lib, jamoatchilikda “adolat” hamda “o‘zini o‘zi boshqarish” talablari uchun zamin yaratgan edi [5. 23-28].

Bundan tashqari, Orol dengizi havzasidagi ekologik falokat bo‘lib, sovet davrida irrigatsiya va paxta yetishtirishni keskin kengaytirish natijasida suv resurslari qayta taqsimlangan, bu esa Orolning qisqarishi, sog‘liq va yashash manbalariga bevosita zarba bo‘lishi haqida keng ilmiy adabiyotda qayd etilgan. Ekologiya masalasi 1980-yillarning oxirida siyosiy mobilizatsiya uchun “universal” tilga aylandi: u nafaqat iqtisodiy boshqaruvni, balki markaziy siyosatning oqibatlarini ham tanqid qilish imkonini berdi [6. 56].

Milliy uyg‘onish va til siyosatida 1989-yil 21-oktabrda “Davlat tili to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi respublika siyosiy o‘zini anglashining ramziy-huquqiy belgilaridan biriga aylandi, bu qonun “o‘zbek tilining maqomi” masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardi va rasmiy hujjatlarda mustahkamladi. Til qonuni ko‘plab tahlillarda markaz bilan munosabatlar va “madaniy ustuvorlik”ni qayta belgilash jarayonining muhim ramzi sifatida talqin qilinadi.

1990-yil 14-martdagi SSSR konstitutsiyaviy o‘zgarishlari siyosiy pluralizm uchun huquqiy asos bo‘ldi. SSSR konstitutsiyaning 51-moddasida fuqarolarning siyosiy partiyalarga birlashish huquqini normativ tarzda e‘lon qildi va 6-moddaning yangilangan talqini siyosiy partiyalar, kasaba uyushmalari, yoshlar va boshqa tashkilotlar hamda ommaviy harakatlarning vakillik orqali siyosat ishlab chiqishdagi ishtirokini tilga oldi. Bu o‘zgarishlar aynan “partiya yakkahokimligi”ni yumshatish va ko‘ppartiyaviylikni huquqiy jihatdan mumkin qilish nuqtayi nazaridan tayanch bo‘lib xizmat qildi [7.59-60].

1990-yil 9-oktabrdagi SSSR “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonuni esa siyosiy partiyalarning jamoat birlashmasi sifatida mavjud bo‘lishi, ularning tuzilishi va (umumittifoq partiyalar uchun) a‘zolik kabi talablar (masalan, ayrim talqinlarda kamida 5 ming a‘zo) masalalarini tartibga soldi. Shunday qilib, 1990-yilning o‘zida siyosiy partiyalar “normativ kategoriya”ga aylanganini ko‘rish mumkin: rasmiy huquq tili endi partiya va harakatlarni mutlaqo inkor etmas, balki tartibga solardi.

1990-yil 20-iyunda O‘zbekiston mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi respublika hududida davlat hokimiyatining ustuvorligi va tashqi munosabatlarda suveren kabi prinsiplar bayon etdi. Bu hujjat siyosiy partiyalar tarixi uchun ham muhim, chunki u “davlat qurilishi” va “siyosiy o‘zini belgilash” jarayonini kuchaytirgan, norasmiy harakatlarning talablarini siyosiy tilga yaqinlashtirgan [8. 69-70].

Bundan tashqari, O‘zbekiston SSRda prezidentlik institutining 1990-yil 24-martda joriy etilishi va Islom Karimovning prezident etib saylanishi respublika siyosiy tizimi evolyutsiyasida muhim burilish bo‘ldi: bir tomondan, bu davlat ijroiya hokimiyatini markazlashtirish va modernizatsiya qilishni bildirsa, ikkinchi tomondan, yangi siyosiy maydonda kuchlar muvozanatini ham belgiladi.

O‘zbekistonda sovet davridagi eng ko‘zga ko‘ringan norasmiy siyosiy harakatlardan biri — “Birlik”. Uning tashkil topgan sanasi bo‘yicha manbalar bir xil emas: ayrim o‘zbekcha manbalarda 1988-yil noyabr ko‘rsatilsa, boshqa, xususan, USCISning 1994-yilgi mamlakat ma‘lumotnomasida “1989-yil may” sanasi uchraydi. Shu sababli, bu maqolada “Birlik”ning vujudga kelishi 1988 oxiri – 1989 birinchi yarmi oralig‘ida shakllangan deb xulosa qilishimiz mumkin.

Manbalar “Birlik”ning dastlabki asosiy mavzulari sifatida o‘zbek tilining maqomi, demokratlashuv va siyosiy pluralizm, siyosiy yo‘nalish kabi masalalarni tilga oladi.

1990-yilda O‘zbekistonda muxolif siyosiy partiya sifatida eng ko‘p tilga olinadigan tuzilma — “Erk” demokratik partiyasi hisoblanadi. Siyosiy “Erk” “Birlik”dan ajralib chiqqan guruh sifatida tasvirlanadi va partiya 1990-yil 30-aprelda ta’sis qurultoyini o‘takazadi va rasmiy nashri “Erk” gazetasini nashr qilishadi.

“Erk”ning partiyasini rahbari sifatida adabiyotshunos olim Muhammad Solih siyosiy maydonga chiqib, o‘zining partiya dasturlarini xalqqa ko‘rsatadi.[3. 67-69]. Uning “Yo‘lnoma” nomli qo‘llanmasi 1990-yil aprel oyida tashkiliy qarorlar qabul qilingani va 30-aprelda birinchi qurultoy rejalashtirilgani haqida batafsil yozadi. Bu manba ichki jarayonlarni ko‘rsatishi bilan qimmatli, biroq janr xususiyati sabab akademik tekshiruv talab qiladi.

“Birlik” va “Erk” partiyalari dastlab Orol havzasidagi ekologik falokat (suv resurslarini irrigatsiya uchun haddan tashqari yo‘naltirish, paxta xomashyosi va Orolning qisqarishi) ko‘plab ilmiy tahlillarda sovet siyosiy iqtisodining “ko‘rinadigan oqibatlari”dan biri sifatida tasvirlashadi. 1970–2000-yillar oralig‘idagi kosmik tasvirlar Orolning keskin shrinkajini yaqqol ko‘rsatadi. Bu mavzu 1980-yillar oxirida jamoatchilik muhokamasida siyosatni tanqid qilish uchun muhim asos bo‘lib xizmat qilganini ko‘rish mumkin [6. 89-90].

MUHOKAMA. O‘zbekistonda partiyalar vujudga kelishi “uchta qatlam” kesishmasida yuz berganini ko‘rsatadi. Birinchi qatlam — huquqiy-institutsional imkoniyatlar: 1990-yilda SSSR Konstitutsiyasining yangilanishi va “Jamoat birlashmalari to‘g‘risida”gi qonun partiya va harakatlarning mavjud bo‘lishini huquqiy tilga kiritdi; bu, siyosiy fanlarda, “siyosiy imkoniyatlar tuzilmasi”ning keskin kengayishi sifatida talqin qilinadi [9. 23-24].

Ikkinchi qatlam — ijtimoiy-siyosiy norozilik va legitimlik muammolari: “paxta ishi” atrofidagi kampaniyalar korrupsiya va boshqaruv inqirozini ochiq muhokama maydoniga olib chiqdi; bunday sharoitda “adolat”, “vakillik”, “suverenlik” kabi tushunchalar ommaviy siyosiy talablarga yaqinlashadi. Qayta qurish nuqtayi nazaridan, aynan shunday norasmiy harakatlarning siyosiy lashuvini tezlashtirgan omillardan biri bo‘lganini asoslash mumkin.

Uchinchi qatlam — milliy uyg‘onish va ramziy siyosat: 1989-yilgi “Davlat tili” qonuni va 1990-yilgi mustaqillik deklaratsiyasi jamiyatda “davlat qurilishi” va “o‘zini belgilash” jarayonini kuchaytiradi; natijada til va suverenitet mavzulari harakatlar uchun asosiy resurs, davlat uchun esa institutsional vositasiga aylanadi. Bu holat O‘zbekistonda milliy-ramziy siyosatning partiyalashuv jarayoniga qanday “ko‘prik” bo‘lishini ko‘rsatadi [10. 102-106].

Markaziy Osiyo bilan taqqoslash O‘zbekiston holatining “mintaqaviy o‘xshashlik” va “mahalliy farq”larini yaxshiroq ochadi. Masalan, Qozog‘istonda 1990-yilda “Azat” harakati suverenitet va ko‘ppartiyaviylik talablarini ilgari surganligi qayd etiladi; Tojikistonda esa 1989-yilda “Rastokhez” milliy uyg‘onish va siyosiy islohotlar kun tartibini ko‘tardi. Turkmanistonda “Agzybirlik” 1989-yilda muqobil urinishlaridan biri sifatida tilga olinadi, biroq tadqiqotlar Turkmanistonda perestroyika oxirida muqobil siyosiy maydon shakllanishi “cheklanganroq” bo‘lganini ko‘rsatadi.

Qirg‘izistonda 1990-yilda demokratik harakat (“Democratic Movement of Kyrgyzstan”) tashkil etilganini qayd etadi. Bu holat mintaqada 1990-yil “anti-kommunistik” yoki “demokratik front”lar paydo bo‘lishining umumiy tendensiyasiga mos keladi. Shunga qaramay, O‘zbekistonda prezidentlik institutining 1990-yilda joriy etilishi va davlat apparatining barqarorligi “partiyalashuv”ga nisbatan kuchliroq institutsional raqobatchi mavjud bo‘lganini anglatadi; bu esa norasmiy harakatlarning tezkor “institutsional yutug‘i”ni cheklagan bo‘lishi ehtimolini kuchaytiradi.

XULOSA. Ushbu tadqiqot 1980–1990-yillarda O‘zbekistonda siyosiy partiyalar vujudga kelishini uchta tayanch omil kesishmasida tushuntirdi. Sovet boshqaruv inqirozi va siyosatining yemirilishi (“paxta ishi”, ijtimoiy zo‘riqishlar), oshkoralik va qayta qurish siyosati orqali ochilgan jamoatchilik muhokamasi maydoni, 1990-yilda partiyalarni konstitutsiyaviy va qonunchilik o‘zgarishlari bilan izohlanadi [8. 68-70].

Asosiy ilmiy xulosa shuki, O‘zbekistonda “partiyalashuv” avvalo norasmiy harakatlar (xususan “Birlik”) orqali, keyin esa 1990-yilda “Erk” kabi partiyaviy shakllar orqali namoyon bo‘ldi. Bu jarayon til siyosati va mustaqillik jarayoni bilan o‘zaro kuchli bog‘liqlikda kechdi. “Birlik”ning aniq tashkil topish sanasidagi tafovutlar esa kelajakda arxiv

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. X.Odilqorayev, D. Razoqov “Siyosatshunoslik”. Toshkent. 2012. 402-bet.
2. Sh.Mamadaliyev. Xalq hokimiyatchiligi. Toshkent. 2003. 33-bet.
3. Bekov I.R. Davlat hokimiyati vakillik organlari faoliyatida siyosiy partiyalar ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish. Yuridik fanlari doktori dissertatsiyasi (DSc) [Improving the organizational and legal framework for the participation of political parties in the activities of representative bodies of state power. Doctor of Law Dissertation (DSc)].Tashkent, 2021, p. 132
4. Qirg‘izboyev M. Fuqarolik jamiyati: Siyosiy partiyalar, mafkuralar, madaniyatlar. T. Sharq 1998 y. 289-b
5. Xalilov E.X. Saylov to‘g‘risidagi O‘zbekiston qonunlarining qaror topishi va rivojlanishi T.,O‘zbekiston ,1999 y. 402-b.
6. Xalilov E.X. O‘zbekiston Respublikasining Qonun chiqaruvchi oliy organi: soxta vakillikdan haqiqiy parlamentarizmga qadar. T. O‘zbekiston, 2001y. 303-b
7. Axmedov D.Q. Xorijiy mamlakatlarda siyosiy partiyalar va partiyaviy tizim. T: TDYUI, 2004. 506-b.
8. I.Bekov “Oliy Majlis Qonunchilik palatasi faoliyatida siyosiy partiyalarning huquqiy asoslari .yu.f.n. dis.. 142-b.
9. Bekov I.R. Siyosiy partiyalar va jamiyatni demokratlashtirish.T .: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi., 2009. 305-b.
10. I.Bekov, K.Hamidova. Saylov va siyosiy partiyalar.Toshkent: 2009. 220-b.